

**“O‘ZBEK TILI VA DUNYO TILLARI: O‘XSHASHLIKLAR,
FARQLAR HAMDA ULARNING MADANIY ALOQALARDAGI O‘RNI”**

Shahnoza Ergasheva

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan fililali

UZB_N_24UA guruhi 2- bosqich talabasi

Til millatning qalbi, uning dunyoda mavjudligining asosiy belgisidir. Til bor millat bor. Til yo‘q millat yo‘q. Til millatimizning bosh belgisidir. Tilni asrash, rivojlantirish, millatning yuksalishi demakdir. Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, ehtimolki, birlamchi boyligi bor. Bu uning til, aynan, til odamlar guruhini bir millat sifatida biriktiradi, yani millatni millat xalqni xalq qiladi. Til yashasa adabiyot ham millat ham yashaydi. Shuning uchun ham til adabiyotni yashnatadigan millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. O‘zbek tilining shakllanib, rivoj topishida ulug‘ mutafakkir A.Navoiyning xizmatlari katta bo‘lgan. Aynan Navoiy asarlari orqali ona tilimizga bo‘lgan mehr -muhabbatimiz oshdi. A.Navoiy o‘z asarlarida tilimizning samolar qadar yuksak qudratga ega ekanligini, uning boshqa tillardan kam joyi yo‘qligini, aksincha, uning o‘ziga xos jozibasi borligini XX asr boshlariga kelib ma’rifatparvar adib Abdulla Qodiriy o‘zbek tilini kamsitgan kishilarga qarata bunday javob qildi: "O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar. Yaratganning hukmi bilan dunyoga ma’lum mashhur bo‘lgan har qanday til borki, unda xalqning tarixi buguni va ertasi mujassamlashgan bo‘ladi. Onadek mo‘tabar o‘zbek tilimiz ham e’zoz-u ehtiromga loyiq. Bugungi ozodlik zamonida, tilimizning qonuniy himoyasi qayta tiklangan davrda, o‘zbek tili butun bo‘y basti bilan keng quloq yoymoqda. O‘zbek tili xalqimizning mustaqilligi va milliy o‘ziga xosligini ifodalab turuvchi bebaho ma’naviy xazinadir. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi mustaqillik sari tashlangan ilk qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili

maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida o'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va nufuzini oshirish eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidladi. Istiqlol yillarida o'zbek tilimiz tom manoda davlat tili maqomiga erishib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod ,farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, dunyodagi 50 milliondan ortiq kishi so'zlashadigan Markaziy Osiyodagi eng yirik mintaqaviy tillaridan biri hisoblanadi. U o'zining boy tarixiy merosi, o'ziga xos lingvistik tuzilishi va rivojlanish yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, O'zbekistonning davlat tili sifatida O'zbek tilining o'rni o'ziga xos ahamiyatga ega. qutlug' ayyom 1989-yil 21-oktabr sanasi – “Davlat tili haqida” gi qonun qabul qilingan kun ma'naviy jasorat, ezgu maqsadlar ro'yabi bo'lgan Ilm-fan, texnika aqlbovar qilmas darajada rivoj topganiga qaramasdan , dunyo hamjamiyati sayyoramizda nechta til borligi haqida aniq ma'lumatga ega emas. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra , dunyo tillarining soni 7 mingdan oshadi. Mazkur tillardan 14 tasida insoniyatning uchdan ikki qismi gaplashadi. Ushbu tillarning har birida so'zlashadiganlar soni esa 50 milliondan ziyod. Dunyodagi 70 tilda gaplashadiganlar 5 milliondan ko'p bo'lsa qolgan tillarda muloqot qiladiganlar 1 milliondan kam. Ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda o'zbek tiliga davlat tili maqomi huquqiy jihatdan muhrlab bergan mazkur qonunning xalqimiz hayotidagi o'rni beqiyosdir.

Turkiy tillar dunyoda eng qadimiy va keng tarqalgan til oilalaridan biri hisoblanadi. Ushbu til oilasi Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropa hududlarida tarqalgan bo'lib, 35 dan ortiq tillarga ega. O'zbek tili esa ushbu oilaning eng yirik vakillaridan biri bo'lib, so'zlashuvchilar soni jihatidan turkiy tillar orasida uchinchi o'rinda turadi.

Turkiy tillar tarixiy jihatdan umumiy ildizga ega bo'lib, ularning shakllanish jarayoni minglab yillar davomida sodir bo'lgan. O'zbek tili dunyo tillari orasida

o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u nafaqat turkiy tillar oilasining muhim bo'lagi, balki xalqaro miqyosda qadriyat sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashtirish jarayonida o'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish, uni ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohalarida keng qo'llash dolzarb masalalardan biridir. O'zbek tili jahon tillari bilan qiyoslanganda, o'ziga xosligi, boy so'z boyligi va qadimiy adabiy merosi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'zbek tili jahon adabiyoti xazinasida munosib o'rin egallagan. Shu bois, tilimizni rivojlantirish, uni zamonaviy texnologiyalar va ilmiy izlanishlar darajasiga olib chiqish, hamda avloddan-avlodga toza va sof holda yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.